



**BUXORO VILOYATI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
BOSHQARMASI TASARRUFIDAGI VILOYAT
BOLALAR KUTUBXONASI**

“She’riyat tongining yulduzi”

Zulfiya tavalludining 110 yilligiga bag‘ishlab

(Uslubiy qo‘llanma)



BUXORO - 2025

Z-91

Uslubiy bo‘lim tomonidan tayyorlandi

Tuzuvchi: M.Xayrullayeva

Muharrir: D.Muqumova

Mazkur uslubiy qo‘llanma birinchi xalq shoirasi Zulfiyaning hayoti va ijodini o‘rganish uchun ishlab chiqilgan. Unda Zulfiya hayoti va ijodining barcha jabhalari qamrab olindi. Qo‘llanmada Zulfiya hayoti va ijodi, shoira ijodining o‘ziga xos qirralari, uning adabiy-estetik qarashlari, she’riyati, dostonlari, publitsistikasi, ocherk, maqolalari va xotiralari bilan tanishish mumkin. Shuningdek, shoiraning tarjima sohasida amalga oshirgan ishlari xususida ham ma’lumotlar berilgan.

Bahor, muhabbat va sadoqat kuychisi

Zulfiya Isroilova – taniqli va iqtidorli o‘zbek shoirasi. Yorqin rassom, oddiy inson qalbini o‘tkir his qilgan – mehnatkash, Sharq ayolining jamiyatdagi teng huquqi uchun mardonavar kurashgan ayol. Zulfiya she’riyatining nufuzi – bizning dabdabali murakkab davrimizning haqqoniy ifodasi, o‘ziga xosligi, zamondoshlarimizning qalbi va harakatlarining yorqin tasviridadir. O‘zbek xalqining atoqli va ardoqli vakili, taniqli jamoat arbobi, xalqaro tinchlik uchun kurash jarchisi Zulfiya Isroilova xalqaro “Nilufar”, Javoharlal Neru nomidagi hamda Davlat mukofatlari sohibasidir. Zulfiyaxonim Isroilova 1915-yili Toshkent shahrining qadimiy Degrez mahallasida tavallud topgan. Avval boshlang‘ich maktabda, so‘ng xotin – qizlar bilim yurtida tahsil olgan. 1935-1938-yillarda O‘zbekiston fanlar akademiyasining til va adabiyot instituti aspiranturasida o‘qigan. Shundan keyin turli nashriyotlarda ishlagan. 1935-yildan 1980-yilgacha, qariyib o‘ttiz tilga yaqin respublikamizda keng tarqalgan “Saodat” nomli xotin – qizlar jurnalida bosh muharrir bo‘lgan. Zulfiyaxonim Isroilova Hamid Olimjon bilan turmush qurgan. Biroq ular orzulariga to‘la hayot kechirayotgan pallada 1944-yili mashina halokati tufayli turmush o‘rtog‘idan ayrildi. Shoirasi 1996-yilda 81 yoshida vafot etadi.

Shoirasi badiiy ijodga juda erta kirishdi. O‘n yetti yoshida “Hayot varaqalari” deb atalmish dastlabki she’riy kitobini chop ettirdi. Uzoq ijodiy umri davomida o‘ttizga yaqin she’riy to‘plamlar, o‘ndan ortiq dostonlar yaratdi. Shoirasi hammani o‘ylatadigan, barcha kishilarga Jaxldor bo‘lgan holatlarni she’rga soladi. Shuning uchun ham yozganlari ko‘pchilikka manzur bo‘ladi. Zulfiyaning ulkan iste’dodi faqat yurtimizdagina emas balki dunyo miqyosida ham e’tirof etilgan. U – xalqaro “Nilufar” mukofoti egasi. Shoirasi sherlarining el aro mashhurligi tasodifiy emas. U bolaligidan olamga hayrat ko‘zi bilan qarovchi, uning boshqalar ko‘rolmaydigan jihatlarini ilg‘ovchi qizaloq ekanligi bilan ajralib turardi. Buning ustiga, oilasidagi muhit ham yosh Zulfiyada badiiy ijodga ishtiyoqni alangalatardi. Shoirasi bolaligini shunday eslaydi: “Otamni... Isroil degrez der edilar. Otam zahmatkash temirchi edi. Otamning hamma vaqt olovga yo‘ldosh kasbidan faqat zavq ko‘rar edim. Otamday qudratli odam yo‘q edi men uchun. Temirlar otam qo‘lida chaqmoqlar taratishiga boqib, hayratda qolar edim. Uning qo‘llari cho‘g‘ga aylangan temir parchasini istagan shaklga solib, inson uchun kerakli narsaga aylantirishga qodir edi. Men hali-hanuz otamday bolishni orzu qilaman, ammo na iloj, inson qalbiga kira bilish temirga ishlov berishdan mashaqqatliroq, yurakni chaqmoq kabi alanga oldirish har kimga ham muyassar bo‘lavermas ekan... Mening onam o‘zining ta’bincha, “usti butun – ichi tutun” ayollardan edi. U hamma vaqt kamgap, xayolchan edi, lekin fikrlari, o‘ylari mudroq emasligini, unga mutelik, zaiflik yot ekanligini bilar edim. Ruhidagi ma’yuslik, ovozidagi hazinlik faqat uning xarakteriga xos bir sifatgina edi, xolos. Onamning qancha-qancha qo‘shiq va afsonalarni, doston va ertaklarni bilishiga aqlim bovar qilmasdi. Bu sehrli afsona va ertaklar bizga benihoya huzur bag‘ishlar, o‘ziga rom qilib olar, har safar yangi jilva kasb etardi. Aminmanki, mo‘jizalar yaratishga qodir, jahonni ko‘zga keng ochuvchi, insonni go‘zallik sari yetaklovchi so‘zga shaydolik hissini mening qalbimda ostonaga hatlab ko‘chaga chiqmagan oddiy ayol – onam uyg‘otgan...” Zulfiya she’riyati ana shunday pokiza buloqlardan suv ichgan ijoddur. Ayni shu sababdan uning tinchlik haqidagi, inson ruhiya-tini g‘ajib tashlay oladigan hijron

to'g'risidagi, tabiatning ajib bir holati borasidagi she'rlari hech kimni befarq qoldirmaydi. Shu bois shoiraning barcha ayollarga, barcha onalarga, barcha ma'shuqalarga xos, tushunarli, anglanarli bo'lgan she'riyati aslo eskirmaydi. Uning asarlarida halol inson tuyg'ularining porloq yulduzi charaqlab turadi.

Xalq orasida "Oydinda", "Sensiz", "Yurak", "Falak", "Bahor keldi seni so'roqlab", "O'g'irlamang qalamim bir kun", "Bo'm-bo'sh qolibdi bir varaq qog'oz" kabi she'rlari, "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", "Mushoira" kabi she'rlari mashhur. "Uni Farhod der edilar", "Quyoshli qalam", "Xotiram siniqlari" kabi lirik va liro-epik dostonlar muallifi. 1935 yilda shoir Hamid Olimjon bilan turmush qurgan va uning bevaqt vofotidan so'ng ko'plab mahzun she'rlar yaratgan. Pushkin, Lermontov, Nekrasov, L. Ukrainka, V. Inber va boshqa ko'plab shoirlarning asarlaridan namunalarni o'zbek tiliga tarjima qilgan. Zulfiya she'riyati tabiatga hamda uning ajralmas qismi va yuqori cho'qqisi bo'lmish odamzotga nisbatan hayajonli sevgi bilan burkangan. Uning she'rlarida tabiat och ranglarda, yorqin bo'yoq va timsollarda gavdalanadi. Zulfiyaning olijanoblik, jasorat, haqqoniy xalq g'ururi, tabiat va insonga nisbatan samimiy tuyg'ular va hurmat, boy ranglar va kutilmagan yangi timsollar bilan bajarilgan lirikasi, kitobxon qalbini larzaga keltiradi, insoniyatning kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Iqtidorli shoira va yozuvchi, inson qalb tug'yonlarini o'tkir bilimdoni bo'lib, turli janrlarda asarlar yaratgan: dostonlar, balladalar, elegiyalar, nasriy she'rlar, hikoyalar, ocherklar, publististik maqolalar va gazeta xabarlari. Uning ko'p she'rlari SSSR xalqlari tinchligi va do'stligi sari kurashga bag'ishlangan edi. Urush yillari u vatanparvarlik she'rlarini yozgan. U tomonidan, shuningdek, o'zbek bastakorlarining operalariga librettolar ham yozilgan, masalan, "Zaynab va Omon" operasiga libretto. Shu bilan birga, turmush o'rtog'i Hamid Olimjon qalamiga mansub "Semurg" dostoni mavzusi asosida, ertak-sahna asarini ham yozgan. Shoira adabiy-ijtimoiy faoliyati uchun ko'pgina davlat mukofotlari bilan taqdirlangan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, Zulfiyaxonim o'zbek she'riyatida o'ziga xos o'ringa ega shoira bo'lishi bilan birga inson sifatida ham shu xalqning barcha olijanob xislatlariga ega ayol bo'lgan. Bugun shu maqolani yozish va Zulfiyaxonimni ijodiga chuqurroq nazar solish orqali yana bir karra amin bo'ldimki, o'zbek adabiyoti XX asrda har qancha ziddiyatli, mashaqqatli va murakkab yo'lni bosib o'tgan bo'lmasin, unda bir qator tom ma'nodagi ijodkorlar etishib chiqqan va ularni ichidagi porloq yuzlulardan biri bu Zulfiyaxonim bo'lgan. Bugungi istiqbol kunlarida ularning ijodlari yangi qirralari bilan namoyon bo'lmoqda. Zulfiyaxonimning hayoti va ijodi barcha xotin-qizlar uchun ibrat. Negaki, uning hayotidagi mehnatsevarligi, doimo olg'a intilishi, sevgi bobida sadoqatli yor ekanligi, badiiy ijod borasida tinimsiz izlanuvchanligi hamda hayot qiyinchilik larida esankiramasligi, erishilgan yutuqlar oldida o'zini yo'qotmasligi har qanday qiz yoki ayol qalbida havas uyg'otadi.

Hamid OLIMJON

ZULFIYAGA

Eng gullagan yoshlik chog'imda,

Sen ochilding ko'ngil bog'imda.

Shunda ko'rdi ko'zim bahorni,

Shunda qalbim tanidi yorni.

Qushlar sayrar jonimga payvast,

Men sevgining bo‘yi bilan mast.
Kuni bilan dalada qoldim,
Lolazorlar ichra yo‘qoldim.
Quchoq-quchoq gullar terganim
Va keltirib senga berganim,
Kechagiday hamon esimda,
Har soniya, har on esimda.
Shundan beri tilimda oting,
Shundan beri dilimda oting...
Eng gullagan yoshlik chog‘imda
Sen ochilding ko‘ngil bog‘imda.

1937 yil

Zulfiya zamondoshlari xotirasida

SIZNI SOG‘INDIM, ZULFIYA OPA! Umr o‘tib bormoqda. Umr o‘tgan sari odam bosib o‘tgan yo‘llarini, boshdan kechirgan yillarini tez-tez eslab turar ekan. Inson bosib o‘tgan yillar va yo‘llar – nimadir ular? Masofami, vaqtmi va boshqa narsami, menimcha, ular umring davomida senga ro‘para kelgan, hayotingda iz qoldirgan odamlar – do‘stlar, qarindoshlar, ustozlar, safdoshlar. Afsuski, ulardan ancha-munchalari allaqachon, shoir Shayxzoda ta‘biri bilan aytganda, “hechiston” mamlakatiga rixlat qilishgan, lekin ularning ruhi poklari tirik, bot-bot huzurimga kelib turishadi, gurunglashamiz, dardlashamiz, maslahatlar quramiz. Vaqt o‘tgan sari ularning o‘rni bilinadi, ko‘plarining siymosi yanada tiniqlashadi, yuzlari, ko‘zlaridagi nur o‘tkirlashadi. Bunday eslashlar, bunday xotirotlar hamisha kishiga ruh beradi, bardam qiladi, mamnuniyat bag‘ishlaydi. Hayot yo‘llarimda shunday ulug‘ zotlarga ro‘para kelgan ekanman, ular bilan hamsuhbat, hamfikir, hamdard bo‘lgan ekanman, demak, umrim unchalik ham behuda o‘tmapti. Bugun tongda Zulfiya opani esladim. Naqadar olijanob, naqadar nuroniy ayol edilar. O‘ylab qarasam, Zulfiya opa o‘zlarining she‘rlari bilan, iboli va hayoli fe‘li atvori bilan, pokiza e‘tiqodiyu zukko fikrlari bilan mening hayotimdan katta o‘rin olgan, ma‘naviy dunyomning katta bir qismini tashkil qilgan inson bo‘lgan ekan. U kishi shunday ulug‘ sifat ayol edilarki, har gal ro‘para kelganimda darrov hushyor tortar, kiyim-kechaklarimni to‘g‘rilar, qadalmay qolgan tugmalarimni qadar, sochlarimni (ha, ha sochlarimni – bir zamonlar bu bosh ustida qop-qora sochlar ham bo‘lar edi) tekislab olardim – xullas, u kishining ko‘ziga har jihatdan orasta bo‘lib ko‘rinishga tirishardim. Men Zulfiyaning nomini urush yillaridayoq eshitgan, uning “Hijron” degan she‘riy to‘plamini, “Uni Farhod der edilar” degan dostonini yod olib, ko‘p joylarda o‘qib yurardim. Yaqinroqdan tanishish keyinroq nasib qildi. 1962 yilda Qozog‘istonda o‘zbek adabiyoti dekadasi bo‘ldi. Dekadaga men ham bordim. Samolyotda Zulfiya opa bilan yonma-yon o‘tirib qoldik. Har xil mavzularda gurunglashib, yo‘lning tanobini tortib oldik. Gap orasida Zulfiya opa yarim hazil, yarim chin ma‘nosida birdan so‘rab qoldilar: -Ozodjon, nega siz mening she‘rlarim to‘g‘risida hech narsa yozmaysiz? Yoki yoqmaydimi? Men duduqlanib nimalardir deb javob berdim, lekin o‘ylanib qoldim – darvoqe, nima uchun shu paytgacha Zulfiya opa haqida hech narsa yozmadim? Yaxshi ijodni payqamasang, quvonib targ‘ib qilmasang, sening tanqidchiliging qayoqqa boradi?

Shoshma, sen Zulfiya she'rlarini o'qigansan, albatta, lekin ularni uqqanmisan, bu she'rlar orqali shoirning qanday inson ekanini bilib olganmisan? Ochig'ini aytganda, o'sha dekada men uchun Zulfiyani ham kashf qilish dekadasi bo'ldi. Aeroportda qo'nishimiz bilan qozoq do'stlarimiz bizni quchoq ochib kutib olishdi – allaqachon Sobit Muqonov G'afur G'ulomni quchoqlab olib, unga nimalarnidir uqtiryapti. G'afur aka chust do'ppisini yarimta kiyib olib, Sobit og'aga sof qozoq tilida bir narsalar deyapti. Sochlari oppoq oqargan, novcha bo'yli Abdilla Tojiboyev hissasini sermab, Mirtemirning tevaragida girdikapalak. Tavba, men qozoq va o'zbek yozuvchilarining inoqligi, ijodiy hamkorligi to'g'risida ko'p eshitgan edimu, bunaqa samimiyatni, bunaqa yaqinlikni kutmagan edim. Men mashinaga Zulfiya opa bilan birga o'tirdim. Bizga Tursunxon Abdurahmonova degan qozoq shoirasi hamroh bo'ldi. Tursunxon bu yil sakson yoshga to'lar ekan. Umri uzoq bo'lsin, yuzga kirsin. Lekin men bu shoiraning saksonga kirganini hech tasavvur qilolmayman. U ochiq chehrali, xushsuvrat, o'ta dilbar bir ayol sifatida esda qolgandi. Zulfiya opani bilar ekan, bir zumda quvnoq gurgun boshlandi. Tursunxon yaxshi she'rlar yozish bilan birga juda chiroyli qo'shiqlar ham aytar ekan. Manzilga yetib borgunimizcha, uch-to'rtta ajoyib o'lanni kuylab tashladi. Qozog'iston diyorida ko'p uchrashuvlar bo'ldi, har uchrashuvda Zulfiyaning nomi alohida tilga olinar, undan she'r o'qib berishini talab qilishardi. Qozoqlarning bizning shoiramizga muhabbati shu qadar cho'ng ekanki, bir-ikki joyda u favqulodda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ldi. Safar davomida biz Ko'kchatovga bordik. Benihoya go'zal maskan ekan. Chiroyli qarag'ayzorlar tevarak-atrofga muattar hidlar taratadi. Yengil tuman ichida elas-elas ko'rinayotgan tog'lar havoda muallaq turganga o'xshaydi. Lekin Ko'kchatovning dovrug'i tog'lariyu o'rmonlarida emas, ko'llarida ekan. Bir viloyatning o'zida kattakichik saksonta ko'l. Suvlari tiniq, bamisoli ko'zguga o'xshaydi. Unda sohildagi daraxtlar ham, tip-tiniq osmon ham aks etib, o'zgacha joziba kasb etgan. Ayniqsa, Oynako'l degan kattagina ko'lning go'zalligi har qanday ta'rifdan yuqori. Qirg'oqqa yaqinroq joyda suv ichidan kattagina qoyatosh chiqib turibdi. Bu tosh darhol suv parilarini eslatdi – bunaqa go'zal ko'lda ko'ldan-da go'zal suv parilari bo'lsa ne ajab. Eng qiziq voqea biroz keyin – tushlik vaqtida ro'y berdi. Tushlik she'rxonlikka, she'rxonlik qo'shiqqa ulanib ketdi. Gurung avji qizib turgan bir paytda qozoq shoirlaridan biri turib, Zulfiyaga bag'ishlangan she'rini o'qib berdi. Unda shoir boyagi ta'rifi ketgan Oynako'lni Zulfiyaga tortiq qilgan edi. Garchi bu sovg'a ramziy bo'lsa-da, Oynako'lni ko'tarib ketishning iloji bo'lmasa-da, hammamizni juda xursand qildi. Bir-ikki kundan keyin Balxashga bordik. Kunduzgi uchrashuvlardan keyin biroz dam olib, oqshomgi adabiy kechaga jo'nashimiz kerak edi. Birdan Zulfiya opa g'oyib bo'lib qoldilar. U kishining qayerda ekanini hech kim bilmaydi. Mezbonlarimiz esa miyig'larida sirli kulib, "xavotir olmanglar, kelib qoladilar" deb bizni tinchitgan bo'lishadi. Darhaqiqat, qorong'i tushganda Zulfiya opa kirib keldilar – u kishining yonida chipta qopga o'ralgan uzun narsa ko'tarib olgan uchta odam bor edi. Ma'lum bo'lishicha, ular Balxash baliqchilari ekan, Zulfiya opa bilan uchrashuvga ko'pdan beri mushtoq ekanlar. Shoiraning Balxashga kelishini eshitib, shoiraning o'zi bilan gaplashib, uni dengizga o'xshagan ulkan ko'l bo'yiga olib ketishibdi. She'rxonlik bo'libdi. Qo'shiqlar kuylashibdi. Baliqxo'rlik qilishipti. Xullas, to'yib diydorlashishibdi. Baliqchilar ko'p mashaqqatlar chekib, shoiraga sovg'a qilish uchun ikki metr keladigan osetra balig'ini ushlab qo'yishgan ekan. Boyagi chiptaga o'ralgan uzun narsa osetra

balig'i ekan. Bilmadim, keyin baliq nima bo'ldi – Toshkentga olib kelishdimi yo o'sha yerda qolib ketdimi? Lekin buning ahamiyati yo'q edi – muhimi oddiy qozoq mehnatkashlari shoiraga bo'lgan hurmat-e'tiborini ifodalashning g'oyatda insoniy va original yo'lini topishgan edi. O'shanda qozoq do'stlarimizning Zulfiyaga munosabatini ko'rib xijolat tortib ketdim – shoiraning dovrug'i shunchalik bo'lsa-yu, tanqidchilar u tomonga bir qiyo boqmasa? Keyin O'zbekistonda ham Zulfiyaning ijodiy kechalarida ko'p qatnashdim. Yaypanda, Popda, Marg'ilonda, Toshkentda... Qo'qondagi bir uchrashuv ham g'oyatda maroqli bo'lgan edi. Qo'qonliklar shoiraga siyohdon sovg'a qilishdi. "Bu siyohdon Nodirabegimning siyohdoni. Nodirabegim sizga qalamini meros qoldirgan. Siz Nodirai davronsiz. Nodira aytolmay ketgan qo'shiqlar sizning qalamingizdan to'kilsin", deya lutf qilishdi. Zulfiya opaning dovrug'i butun jahon bo'ylab taralgan edi. Qaysin Quliyev, David Qo'g'ultinov, Mustay Karim kabi ulkan san'atkorlar uning yaqin do'sti edi. U "Nilufar" xalqaro mukofotining, Neru nomidagi xalqaro mukofotlarning sohibasi edi. Lekin mukofotu unvonlar orasida bittasi bor ediki, u unvon bilan Zulfiya opa alohida mag'rurlanardi. U O'zbekiston xalq shoirasi edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, "Baxtim shul – o'zbekning Zulfiyasiman" deya xitob qilgandi. Men, albatta, Zulfiya opa haqida yozdim, uning to'g'risida bir adabiy portret yaratdim, yangi she'riy kitoblariga taqriz yozdim, maqolalarda uning to'g'risida mulohazalar yuritdim. Lekin, aytmog'im kerakki, mening yozganlarim bu ulkan shoiraning ijodi oldida urvoq ham bo'lolmaydi, men uning nafosatini, go'zalligini, fikriy boyligini ko'ngildagidek, o'sha she'riyatga munosib tarzda ochib berolgan emasman. Mana, hozir ham yozayapman-u, lekin qalamim eski o'rganib qolgan maddohlik yo'liga toyib ketayotganini sezib turibman. Nechundir mening tasvirimda Zulfiya opa farishta misol bo'lib chiqyapti. Holbuki, u inson edi va har qanday inson hayot yo'lida duch keladigan hamma sinovlar, mashaqqatlar, iztiroblar uning ham boshiga tushgan edi. Ko'pgina she'rlarida Zulfiya opa o'zining "kemtik baxti" haqida gapirdi. Umrining so'ngida yozgan "Xotiram siniqlari" dostonida esa o'sha mashaqqatlar to'g'risida benihoya mardonalik bilan yozadi. Bu asar teranligi va mardonavorligi bilan menga Anna Axmatovanning "Rekviyem" degan asarini eslatadi. Shoiraning she'rlari haqida, ularning latofati, insoniy jozibasi, teranligi to'g'risida juda ko'p gapirish mumkin. Lekin men bugun boshqa bir savolga javob izlayapman – Zulfiyani odamlarga ardoqli qilgan, adabiyotimizning yorqin yulduzlaridan biriga aylantirgan, XX asrning buyuk ayollari qatoriga qo'shgan asosiy omil nimadir? Menimcha. Bu – uning e'tiqodi, juda yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlar, dili bilan tilining birligi, she'rlarida madh etgan insoniylik, vafo, sadoqat va diyonat degan narsalarga o'zi hayotda og'ishmay amal qilganida. Iste'dod ulug' ne'mat, lekin ko'ldan-da go'zal suv parilari bo'lsa ne ajab. Eng qiziq voqea biroz keyin – tushlik vaqtida ro'y berdi. Tushlik she'rxonlikka, she'rxonlik qo'shiqqa ulanib ketdi. Gurung avji qizib turgan bir paytda qozoq shoirlaridan biri turib, Zulfiyaga bag'ishlangan she'rini o'qib berdi. Unda shoir boyagi ta'rifi ketgan Oynako'lni Zulfiyaga tortiq qilgan edi. Garchi bu sovg'a ramziy bo'lsa-da, Oynako'lni ko'tarib ketishning iloji bo'lmasa-da, hammamizni juda xursand qildi. Zulfiya opa o'zbek she'riyatida o'ziga xos bir maktab yaratgan edi. Uning shogirdlari ko'p edi. Bulardan ayrimlari – Oydingxon, Qutlibeka va boshqalar bugun Zulfiya opaning chirog'ini so'ndirmaslikka harakat qilib, samarali ijod etmoqda. Shoir shogirdlari bilan birga go'zal bir she'riyat chamani yaratib ketdi. Xo'sh, bugun bu bo'ston qay ahvolda? Uning

holidan ogoh bo‘lib, parvarishiga qarab turgan she‘rshunoslar, she‘rparastlar bormi yo u yetim qoldimi? Albatta, bugungi she‘riyatimiz yetim qoldi desak noto‘g‘ri bo‘lardi, she‘riyat bo‘stoni qarovsiz yotipti, o‘z holiga tashlab qo‘yilgan, desak ham haqiqatdan uzoq bo‘lardi. Zabardast shoirlar bor, ularning tanlangan asarlari, yangi to‘plamlari chiqib turibdi. Shu bilan birga, shoir Erkin Vohidov aytgan “daho she‘rlar” yaratilmayapti. She‘riyatda borgan sari maydalashish holati sodir bo‘lyapti. Shoirlar o‘zi bilgan narsalarni yozish o‘rniga sun‘iy gaplarni to‘qib chiqaradi, yasama gaplarni gapiradi. Ba‘zilar hali yigirmaga to‘lar-to‘lmas “kuydim-pishdim”ga o‘tishadi, “o, dastingdan dod, dunyo” deb hayqiradi, ba‘zilar “charxning men ko‘rmagan dardu balosiqoldimu?” degan savollarga ko‘mib tashlaydi, yana ba‘zilar chillaga kirgan mulladek, she‘rda shunaqa ko‘chalarga kirib qolishyaptiki, yoqa ushlamay ilojing yo‘q. Yaqinda bir shoirning she‘rini televizorda tahlil qilishdi. Uning yori betob ekan. Uzoqdan o‘rtog‘i ko‘rinibdi – u qizining ahvoli haqida xabar olib kelibdi. U yetib kelguncha, shoir xavotir ichida kutib turibdi. U kelib, “otang vafot etdi” deydi. Shoir xursand bo‘lib ketipti (yori o‘lmaganiga bo‘lsa kerak-da). Asarni maqtagan tuppa-tuzuk shoirlar xuddi ana shu joyni “ichki dunyoni ochishdagi yangi kashfiyot” deb taqdim etishdi. Kashfiyot o‘lsin shunaqa bo‘ladigan bo‘lsa! Bunaqa gaplar she‘rda chinakam she‘riyat, nafasat o‘rniga, sahnada ko‘rsatiladigan yasama o‘yinlar, sun‘iy qiliqlar ko‘payib ketayotganini ko‘rsatmaydimi? Oq qog‘ozning tili, zaboni yo‘q – nimani yozsangiz chidayveradi, ammo iste‘dodning iste‘dodligi shundaki, u nimani yozishni bilishdan tashqari, nimani yozmaslik kerakligini ham yaxshi bilishi kerak. Mayli, bu g‘amgin, kimlargadir yoqmaydigan gaplarni qo‘yaylik. Bugun tongda ruhi pokingiz bilan yana bir marta gurunglashdim, Zulfiya opa. Va yana bir karra amin bo‘ldimki, o‘zbek adabiyoti XX asrda har qancha ziddiyatli, mashaqqatli va murakkab yo‘lni bosib o‘tgan bo‘lmasin, unda bir qator tom ma‘nodagi ijodkorlar yetishib chiqdi. Bugungi istiqlol kunlarida ularning ijodlari yangi qirralari bilan namoyon bo‘lmoqda. Shu porloq yulduzlar ichida siz ham oldingi qatorlardasiz, Zulfiya opa!

Ozod Sharafiddinov, O‘zbekiston Qahramoni

SHOIRANING HAYOT QO‘SHIG‘I

Shoirlik nima? Ming yillardan qolgan bu savolga har bir davr o‘z javobini berishga intiladi. Darhaqiqat, u hunarmi, san‘atmi? Tafakkurni lol qiluvchi sehrmi? Va yo hech kim hech qachon anglab yeta bilmas mo‘jizami? Bir zamonda shoirlikni jodu deb atadilar, odamlarni haq yo‘lidan ozdirguvchi kufr dedilar. Boshqa bir zamonda uni payg‘ambarlik darajasiga ko‘tardilar. Bir davrda shoirlikni targ‘ibotchilik deb angladilar, boshqa bir davrda uni inson qalbi uchun, erk, saodati uchun kurashmoq, jang qilmoq deb bildilar. Zamonlar o‘tdi, dunyoqarashlar o‘zgardi, dinlar, maslaklar, g‘oyalar almashindi. Lekin shoir hamisha elning jigari bag‘ridan bunyod bo‘lgusi zurriyot, el xonadonining chirog‘i, ertangi kunga yetguvchi sadosi bo‘ldi. Xalqning, davrning xotiroti bo‘lib dunyoga keldi Shoirsiz yurt – bulbulsiz chaman, yulduzsiz osmon, mayoqsiz bandargoh. Shoir Bundan qirq yil muqaddam – ming to‘qqiz yuz qirq to‘rtinchi yilda O‘zbekiston Davlat nashriyoti mo‘jazgina bir she‘riy to‘plamni chop etdi.

O'n sakkiztagina she'r jamlangan. «Xijron kunlarida» deb atalgan bu kitobchaning paydo bo'lgan kuni dunyoga Zulfiya nomi bilan atalgan qismat yaraldi. Bu qismat bir qatra bo'ldi-yu, unda zamondosh ayol qalbi o'zining jahoniy dardi, iztirobi, faryodi bilan akslandi. Zulfiya degan ismda hijronzada yuraklarning ohi, nidosi mujassam bo'ldi. Darhaqiqat, shoirlik unvon emas – qismat! Buning isbotini butun borlig'i bilan, barcha ohanglari va ranglari bilan shoira Zulfiya ijodida ko'rmoq mumkin. qaysi zamonda, qaysi yurtda yashamasin, birinchi galda o'z qalbining holatini ayon etadi va agar bu holat minglarning, millionlarning qalbiga esh bo'lsa shoir nidosi umumxalq, umumbashariy nidoga aylanadi. Shoirlik hamma zamonda qismat bo'ldi. Ey sevgisi aziz, ey sevimli yor, Ketma, aslo ketma ko'zimdan yiroq. Garchi tushimda ham seni bir ko'rish Hijron kunlaridan ming bor yaxshiroq Bundoq mehr va sog'inch bilan to'lgan satrlarning haqiqiy bahosini bermoq uchun she'r bitilgan yillar zahmatini, fojialarini tasavvur etmoq kerak. Bu misralar judolik dardida o'rtangan necha ming yuraklarga malham bo'lganini, necha ming ko'ngil daftariga ko'chirilganini xayol qilmoq kerak. Nega men so'zni «Hijron kunlarida» kitobidan boshladim? Axir ungacha ham Zulfiyaning «Hayot varaqlari», «She'rlar», «Qizlar qo'shig'i» singari she'riy to'plamlari nashr etilgan edi. Bu to'plamlardagi o'zining tiniq jozibasi bilan kishini rom etuvchi talay she'rlar o'sha vaqtdayoq Zulfiya ismini adabiyotga olib kirgan va mustahkam mavqe bergan edi. Biz bu kun o'sha kitoblarni varaqlab mahorat bosqichlarini poyama-poya egallab borayotgan iste'dod nafasini sezamiz, she'riyatning umidli kelajagini ko'ramiz. Lekin «Hijron kunlarida» kitobini o'qiganda biz shunga amin bo'lamizki, shoirlik iste'doddan ham, mahoratdan ham yuqoriroq tushuncha. Yaxshi she'rlar yozmoqning, hatto barkamol satrlar bitmoqning o'zi hali haqiqiy ma'nodagi shoirlik emas. Toki butun kitob va har bir misrada shoirning o'zligi, bor olami bilan qalbu idroki, dardu quvonchi, tarjimai holi va dunyoqarashi bilan she'rning egasi namoyon bo'lmas ekan, dilkashu dardkash Inson ko'rinib turmas ekan – bu hali to'la ma'nodagi she'riyat emas. «Hijron kunlarida» kitobi bilan o'zbekning uyida shoira tug'ildi, ayol zotining fidoyilik va bardosh, jasorat va nazokat, umid va o'kinch to'la sadosi bo'lib shoira dunyoga keldi va dunyoga kelgan kundan o'zining boqiyiligini ta'min etdi. Zulfiyani shoir qilgan o'z dardli qismati va bu dardli qismat haqidagi samimiy va ehtirosli nidosi. Ulug'lardan biri aytgan ekan: «Shoirni iztirob yaratadi va bu iztirob she'riyat uchun quvonch bo'ladi». Bu so'zlar bus-butun shoira Zulfiyaga taalluqlidir. Shoirani dunyoga keltirgan ulug' iztirob o'z aksiyati bo'lgan ulug' baxtni ham yaratdi. Bu ulug' baxt to'la to'kis xalq va she'riyatnikidir. She'riyat olamiga har bir ijodkor o'z qo'shig'i bilan kirib keladi. Zulfiya she'riyatga Vafo qo'shig'i bilan kirdi. Va bu qo'shiq ayol sadoqatining yuksak tarannumiga aylandi. Vafodek muqaddas, pokiza tuyg'uning qimmatini hech bir zamonda kam bo'lgan emas. Lekin dahshatli jang yillarida yor sadoqatining buyuk jangovar qudratga aylanganini o'sha davr kishilari biladilar. Urushni ko'rganlar aytadilar: «Bizning g'alabamizni «Katyusha» qurolidan ko'ra ko'proq «Katyusha» qo'shig'i ta'min etdi». Bu so'zlarda ulug' haqiqat bor. «Katyusha» ayni vafo haqidagi sodda va o'lmas qo'shiqdir. Zulfiyaning sadoqat satrlari o'zbek jangchisining o'ziga xos «Katyusha»si bo'ldi. Shoir qalblarning tarjimoni. Uning yuragini titratadigan rangin tuyg'ulari odatda hayotiy kuzatishlarning, xayolot parvozining mahsuli bo'ladi. Lekin shoira Zulfiyaning vafo qo'shig'i na kuzatishlar, na xayolot mevasi, balki inson Zulfiyaning o'z hayot qo'shig'idir. Shuning uchun ham bu qo'shiq shunchalar yuksak, shunchalar mukammal,

shunchalar jozibdir. O'zbek xalqining hassos shoir o'g'loni Hamid Olimjon va ardoqli shoira qizi Zulfiyaning tutash umri tillarda dostonidir. Bu sevgi va ijod qissasi haqida she'rlar bitilgan, hali ulug' ishq dostonlari kabi o'lmas asarlar yozilgusidir. Lekin, shoiraning birgina – «Hijroning qalbimda, sozing qo'limda» degan satri yozilajak barcha «Hamid va Zulfiya»larga sarlavha bo'lmoqqa loyiq. «Hijron kunlarida» kitobi nashr etilgan 1944 yil Zulfiya hayotida umrlik hijron kunlarining boshlanishi bo'ldi. Shu yil dahshatli falokat Hamid Olimjonni hayotdan olib ketdi. Shoira uchun mushkul sinov yillari boshlandi. Bu so'ngsiz iztirob oldida bardoshning, alam oldida qat'iyatning imtihoni edi. Zulfiya qalbidagi ana shu ziddiyatlar kurashi, pinhoniylar zilzilalar o'sha yillarda yozilgan she'rlarda eng nozik tebranishlarigacha sezilib turadi. Bu kurashda shoira yuragining jasorati – hayotbaxsh qudrati, umid va ishonchi g'alaba qildi. Hijroning qalbimda, sozing qo'limda, Hayotni kuylayman, chekinar alam. Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda, Men hayot ekanman, hayotsan sen ham. She'riyatimizning hech bir shubhasiz eng nodir durdonalari qatoridan o'rin olgan «Bahor keldi seni so'roqlab»she'ridagi bu satrlar haqida keyincha atoqli shoira Vera Inber shunday degan edi: «Bu qadar og'ir musibatdan so'ng bir yil o'tib shunday umidbaxsh satrlarni bitish uchun qanchalar qudrat kerak!» Zulfiya shunday qudratni topa oldi. Tabiat ato etgan iste'dod, yurt muhabbati, el xizmatiga kamarbastalik, she'riyat zahmati, yo'llar va odamlar shoira yuragining buyuk tayanchi bo'ldilar. Yillar osha uning she'ri go'zallik va harorat, ijtimoiy salmoq va mardonalik kasb eta bordi. Darhaqiqat, Zulfiya she'riyati mardona she'riyat. Hatto eng mahzun tuyg'ularni ifoda etgan satrlarda ham mag'rur iroda, vazmin qat'iyat bor. Shoirni zamon va muhit yaratadi. To'g'rirog'i, zamon va muhit oldidagi burch yaratadi. Bular shoirga mavzu beradi, ijod mundarijasini belgilaydi. Zulfiyani shoir qilgan va mana yarim asrdan buyon el ardog'iga bois bo'lgan xislat hayot bilan doimiy hamnafaslik tuyg'usidir. Bu uzoq va sharaflil ijod yo'lining har bir bosqichida – bu bosqichlar uzluksiz izlanish, mahorat pillapoyalaridan pog'onamapog'ona yuksalish bosqichlari bo'ldi – shoira zamon hodisotiga – ijtimoiy hayot voqealariga har daqiqa o'z munosabatini bildirdi, bu munosabat umuman shoir munosabati emas, balki Zulfiyaning va faqat Zulfiyaning munosabati bo'ldi. Shoiraning o'zligi, betakror iste'dodi she'rdan-she'rga, kitobdan-kitobga yangiyangi qirralari bilan namoyon bo'lib bordi. Hamda bugun o'zining keng mavzu doirasi bilan ranginligi va jozibasi bilan, samimiyati va bor qudrati bilan ko'z oldimizda yaxlit bir she'riyat – Zulfiya she'riyati yuksalib turibdi. Zulfiya iste'dodi umummamlakat adabiyotida alohida hodisadir. Tarixiy qismat Sharq ayolining ovozi jahon minbariga olib chiqish sharaflil va zahmatini Zulfiya zimmasiga qo'ydi. Bu mas'uliyat uning ijod ufqini va hayot tarzini belgiladi, taniqli jamoat arbobi sifatidagi, tinchlik va xalqlar do'stligining jarchisi sifatidagi o'rnini ta'minladi. «O'g'lim, sira bo'lmaydi urush» she'ri dunyoning qaysi tiliga tarjima qilingan bo'lsa, o'sha tilda so'zlagan onalarning nidosi bo'ldi, «Mushoira» esa Osiyo va Afrika yozuvchilari birdamlik harakatining madhiyasidek jaranglab turibdi. Madhiya, tarona... Yo'q, bu so'zlarda qandaydir tantanavorlik bor. Zulfiya she'riyatiga xos xususiyat – chuqur samimiyat, nozik o'ychanlik, nurli dard va yorqin obrazlilikdir. Mana Hindiston mavzusidagi she'rlardan biri – «Baxshish»: Choyingday tim qora yirik ko'zlaring, Boqishi tilanchmas, mutelikmas – o'q! Nahot, sen topingan ming bir tangrining Sodiq bandalardan hech xabari yo'q... Ko'pchilik she'rxonlar odatda ravon, yengil, o'ynoqi she'rlarga ishqiboz bo'ladilar. Ularni davralarda maroq bilan yod o'qib,

kuyga solib aytib yuradilar. Zulfiyaning she'rlari bu toifadagi she'rlardan emas. Ular silliq, oson o'qilmaydi. Bu she'rlarni to'xtab-to'xtab har bandining mag'zini chaqib o'qishga to'g'ri keladi. Shoiraning o'zi ham ularni osonlik bilan yozgan emas. Har bir so'z yurakni og'ritib, sitib olingandek. Rus tilida «выстраданный» degan qisqa va aniq ifoda bor. Zulfiya satrlariga ana shu ifoda to'la-to'kis muvofiqdir. «Yozaman, asabu fikrim savalab» – deydi shoira bir she'rida. Haqiqatan ham uning har bir misrasida yuk bor, ma'no va obrazlar yuki bor, hissiyotning aniq suvratlari bor. «Bir saf olcha gulda – naq qator gulxan oq o't-la yonganda tong husni o'char» yoki «Janub bu! Bir dengiz iliq og'ushda javlon urganlarga kelar havasim». Bir dengiz iliq og'ush! Chinakam shoirona satr. Zulfiyaning har bir she'ri juda katta ijodiy ehtiyojning mevasi. U she'r yozish zaruratga aylangandagina qo'lga qalam oladi va har bir misra, har bir so'zga o'ta talabchanlik bilan tosh qo'yadi. O'ziga, she'riga berahmlik Zulfiya iste'dodining xususiyatidir. She'r shakllari, vazn uslublari bobidagi shoiraning izlanishlari alohida diqqatga sazovordir. Bu izlanishlar toza irmoqlar bo'lib uning ijod dengizini har lahza yangilab turadi. Zulfiya ilhomi sarbastga ham moyil. Ayniqsa, yetmishinchi yillardan boshlab yozilgan she'rlarning talay qismi ana shu zamonaviy erkin vazndadir. Bu vaznning hali ko'pchilik o'rganmagan va shoirlar ham hali to'la kashf etmagan tarovati, imkoniyatlari bor. Sarbast – o'lchov qirg'og'iga sig'magan toshqin tuyg'ularning vaznidir. Bejiz emaski, hozirgi yosh shoirlar bu vaznga ko'proq moyillik bildirmoqdalar. Zulfiya she'riyati kun sayin ko'proq izdoshlar tarbiyalamoqda. Yillar va yo'llar... Bugun shoira o'z umrining nurli yuksakliklaridan turib, o'tgan hayotiga boqadi. Yurgan yo'llarini xotirlaydi, yuragiga yaqin kishilarni eslaydi. Shoiraning bosib o'tgan yo'llari sayyoramizga bir necha bor belbog' bo'lgulikdir. Biz qaysi yurtga qadam qo'ymaylik, adabiyot ahli orasida Zulfiya nomini eshitamiz. Belgradda keksha shoira Desanka Maksimovich bilan ko'rishganimizda uning ilk murojaati: «Zulfiyaxonim sog'-omonmilar?» degan savol bo'ldi. Shunda ko'nglimdan bir fikr o'tdi: Zulfiya nomi O'zbekiston nomi bilan egiz tushunchaga aylanibdi, dunyo xalqlarining O'zbekistonga bo'lgan mehri, o'zbeklarga hurmati shoiraga bo'lgan mehrda mujassam bo'libdi.

Bilaman: sevgidan samoda chirpirak
Parvozlar qaytmas boz,
Ne desam, beqiyos u ishqli yillarim
Ko'rkiga nazira!
Emassan jalada ko'llarni savalab
Bezatgan bir xubob,
Insonning hech bitmas umidu ishqidan nishona.
Har tongi – bir varaq, har shomi elga esh, toledan bir insho, bitta bob,
Hayotning hech qachon uzilmas rishtasi boriga ishona-ishona
– Bitilgich bitta she'r!
Har satri ko'ksimda yetilib tirilgan,
Dardi ham quvonchi borlig'im zabt Etgan jarangli zalvorli.
Tashakkur, yana men tirikman,
Kerakdan-kerakman,
Sabrga bo'ysungan fikr-o'y shiddatli,
Bir shirin g'amzali, g'alvali.

Bu satrlar shoironing «Tong bilan shom aro» deb atalgan yangi she'riy turkumidan. Naqadar teran, naqadar dardlik va naqadar yuksak mahorat bilan yozilgan misralar. To'la asos bilan aytish mumkinki, bu kunda Zulfiya o'z ijodining kamolot cho'qqisida turibdi, kelajakka ishonch ko'zi bilan boqib: «O, ertam, eng go'zal afsonam» deb turibdi:

Chorlading, jonimni tashlading tengsiz kuch

Jasorat jangiga, ongladim:

Lutfiydek kuylasam buyuk dard va qudrat borligin!

Zulfiya singari siymolar xalqning baxti bo'lib yaraladilar.

Bu baxt avvalo o'zbekniki,

O'zbekistonniki, so'ngra esa dunyoniki.

ERKIN VOHIDOV, O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri

AJOYIB SHOIRA OPAMIZ

Eng avvalo, muhtaram Zulfiya opamizni katta-yu kichik adiblar qatori men ham chin dildan muborakbod etaman. Zulfiya opa deganda daf'atan ko'z oldimizda turfa chechaklar bilan ziynatlangan bir chamanzor namoyon bo'ladi. Bu gulzor go'zal she'riyatning muattar bo'ylari bilan orolangandir. Fazilatlar sarchashmasida Zulfiya opaning shoiralik iqtidori turar ekan, bu iqtidor shoiramizning nomini jahonga tanitgan oliy belgidir. Zulfiya opa suhbatlarida, maqolalarida o'zlarini g'oyatda kamtarin tutib, kam ijod qilganliklarini chiroyli bir nadomat bilan aytib turadilar. Bu gaplar chindan ham kamtarlik va samimiyat tufayli aytilgan. Lekin gap miqdorda emasligi barchamizga ayonku. Zulfiya she'riyatining salmog'i uning ancha murakkab yillarda ham chinakam poeziya sifatlariga sodiq qola olganligi bilan belgilanadi. Masalan, adabiyotda sxematizmga o'xshash ohanglar avj olgan yillarda Zulfiyaning Hamid Olimjon xotirasiga bag'ishlangan, chuqur insoniylik bilan sug'orilgan dardchil she'rlari yaratildi. Bu she'rlarga o'z vaqtida bir oz hadiksirab qaragan tanqidchilar ham uchragan. Balki o'sha yillarda shundoq hollar bo'lishi tabiiydir. Lekin davr va adabiyot taraqqiyoti she'riyatimizni shonli yo'lga – Zulfiya ijodini bezab turgan she'riy turkumlar yo'lga olib chiqdi. Zulfiya opaning keyingi yillarda yaratgan she'rlarida esa falsafiylik g'oyatda teranlashib borayotir. Bu kabi fazilatlar poeziyaning o'lmasligini ta'minlaydigan noyob unsurlardir. Ijodiy safarlarda yurgan paytlarimiz, qardosh mamlakatlardagi adabiy suhbatlar chog'ida jahonning eng atoqli shoirlari bizdan Zulfiya opamiz haqida so'rganlarida, u kishiga samimiy salomlarini yetkazishni iltimos qilganlarida, Zulfiya opadek ajoyib inson bilan hamyurt ekanligingdan faxrlanib ketasan kishi. Ko'plab nomdor adiblar Zulfiya opaga hurmat bilan she'r bag'ishlaganlar yoki asarlarida opaning nomlarini ko'p bora ehtirom ila zikr etganlar. Adabiy davralarda Zulfiya opaga juda katta mehr bilan boqib, u kishini “she'riyatimiz malikasi” deb atab keladilar. Opaning hayot jasorati esa qanchadanqancha qalamkashlar uchun go'zal va afsonaviy ijodiy mavzu bo'lib kelayotir. Bu mavzuda ko'plab she'rlar, dostonlar, hatto sahna asarlari ham yaratilgan. Adabiyot vakillariga xalqning bu qadar e'zoz-e'tibori bejiz emas. Munis, mehnatkash, mushfiq xalqimiz o'zining iste'dodli shoira qizini, hayoti sadoqat va vafo bilan yo'g'rilgan farzandini albatta ardoqlaydi-da. Zulfiya opamiz mana shu hurmat-

e'zozlarga tamomila munosibdirlar. Suhbatlarimizdan birida men opaning keyingi she'rlari haqida quvonib so'zlaganimda, u kishi: "Ha endi yoshlardan orqada qolmay deyman-da", deb lutf qildilar. Men esa: "Yo'q, Zulfiya opa, siz she'riyatimizning hamisha oldingi safida edingiz, bundan keyin ham shu oldingi safida boraverasiz", dedim. Bu o'rinda opaning gaplari hammamizga o'rnak bo'larli kamtarlik bo'lsa, mening javobim ayni haqiqat edi

Abdulla ORIPOV, O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri

SAKSON YIL LOVULLAB SO'NMAGAN O'T...

Qutlibeka Rahimboeva 1952 yili Toshhovuz shahrida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi. Fargona pedagogika instituti- ning filologiya fakultetini tamomlagan. «Uzun kunduzlar», «Uygonish fasli», «Ozodlik», «Ko'ksimdagi Tangritog'» kabi she'riy to'plamlari nashr etilgan. L. Ukrainka, M. Qvetaeva kabi shoirlarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Jannatmakon ustozimiz Zulfiyaxonim, tom ma'noda, ulkan shaxs edi. Biz- shogirdlari uchun hech qachon odatiy, oddiy odamga aylanib qolmasdilar. Har safar huzurlariga borganimizda (garchand ba'zan har kun diydorlashish nasib etsada) xuddi imtihonga, sinovga borayotgandek hayajon bilan borardik. Chimkent ko'chasidagi xonadonlariga borganimizda (ko'pincha dugonam Muhtarama bilan borardik) uchinchi qavatga ko'tarilgach, eshiklari oldida birpas turib, birbirimizga: — To'xtang, qo'ng'iroqni bosmay turing, sal hayajonimizni bosib olaylik, — degan paytlarimiz bo'lardi. Holbuki, Zulfiya opam bilan suhbatlashish juda maroqli edi. Shaxsan men opaning suhbatlaridan so'ng ijodga ishtiyoq bilan chiqardim. Chunki u kishi ba'zi ayollar davrasiga xos mayda gaplardan gapirmas, adabiyot maydonida nima gaplar, yoshlar nima yozyapti — shu mavzular atrofidagi gap-so'zlarga qiziqar edilar. Bir gal aynan yoshlar she'riyati haqida gap ketganda Xurshid Davronning yangi kitoblari, Gulandom Tog'aevaning "Sharq yulduzi" jurnalida chop etilgan turkumi haqida iliq fikrlar aytgandilar. — Ijodkorlarning tasavvurlari keng bo'ladi. Lekin bu qizning she'rlari bizning tasavvur doiramizdan ham chiqib ketganga o'xshaydi. Oxirigacha hamma ma'nosini anglab etolmaysan-u, anglaganing o'zingga yoqadi, — degan edilar Gulandomni o'qiganda. Ustoz hamisha yaxshi ijodkorlar haqida mehr va havas bilan gapirardilar. Bunday deyishimga sabab bor. 80-yillar arafasi edi, adashmasam. Arman shoirasi Silva Kaputikyaning Moskvada bir necha tomdan iborat saylanmalari chop etilgan edi. Shoiraning o'zlari (ular qadrdon edilar) Zulfiyaxonimga o'sha kitoblarni yuborgan ekanlar. Opa ularni varaqlab o'tirib: — Qarang, qanaqa chiroyli kitoblar bo'libdi. Faqat she'riyat, ijod dardu quvonchi bilan yashaganda, bunaqa hayot har kimga ham nasib qilavermaydi, — degan edilar. Opaning bu so'zlarida davrdosh shoira ijodiga ehtirom bilan birga har doim ham she'riyat dardu quvonchi bilan yashay olmagan onlari uchun armon ham bor edi, albatta. Zulfiya opa, odatda, sahar turib, bir finjon qahva ichib ijod stoliga o'tirardilar. Biror she'rni ko'ngildagidek yakunlasalar, o'qib berardilar. Opaning she'r o'qigan onlarini juda yaxshi ko'rardim. Ko'zlari charaqlab ketardi. Men opaning ijodiy jarayonlariga, ayniqsa, ijodlarining gultoji bo'lgan "Xotiram siniqlari" dostonining yozilish tarixiga guvoh bo'lganimdan nihoyatda faxrlanib yuraman. Ustoz

tavalludining 80 yillik tantanalariga tayyorgarlik boshlangan kunlar edi. Gazeta, jurnallar materiallar soʻrashar, opa har kuni xazinasini varaqlardi. Galdagi shunday jarayonlarning birida: — Qizimjon, (opa meni koʻpincha shunday chaqirardilar) davr yangilandi. Butunlay boshqacha ruhdagi zamon kelyapti. Men ham boshqacha bir narsa yozishga burchliman, — dedilar. (Ehtimol, ustoz aynan shunday demagandirlar, lekin suhbatimiz shunday mavzuda boshlangani aniq). — Bir narsam bor-u, lekin sochilib yotibdi, yigʻa olmayapman. Har gal qoʻlimga olganda yuragim tugatib tashlaydiganga oʻxshaydi-yu, boshim charchab qoladi, — dedilar. Ustoz tavalludining 80 yillik tantanalariga tayyorgarlik boshlangan kunlar edi. Gazeta, jurnallar materiallar soʻrashar, opa har kuni xazinasini varaqlardi. Galdagi shunday jarayonlarning birida: — Qizimjon, (opa meni koʻpincha shunday chaqirardilar) davr yangilandi. Butunlay boshqacha ruhdagi zamon kelyapti. Men ham boshqacha bir narsa yozishga burchliman, — dedilar. (Ehtimol, ustoz aynan shunday demagandirlar, lekin suhbatimiz shunday mavzuda boshlangani aniq). — Bir narsam bor-u, lekin sochilib yotibdi, yigʻa olmayapman. Har gal qoʻlimga olganda yuragim tugatib tashlaydiganga oʻxshaydi-yu, boshim charchab qoladi, — dedilar. — Qani oʻsha yozganlaringiz? — dedim. Opa oddiy ish daftariga eski yozuvda (ustoz odatda qoralamalarini shu yozuvda yozib, soʻng kirilchaga koʻchirardilar, “Menga shunisi qulay”, derdilar) yozilgan qoralamalarini oʻqiy boshladilar. Oxirigacha “qilt” etmay oʻtirib eshitdim. — Axir, bu bir narsa emas-ku, Zulfiya opa, bu zoʻr doston boʻladi, — dedim. — Faqat bandlarni joy-joyiga qoʻyib chiqish kerak. Shoir yozganlarining bahosini yaxshi biladi, lekin kimdir fikrdosh boʻlsa, baribir boshqacha kayfiyatda boʻpadi. Hatto, oʻsha kimdir menday havaskor shogird boʻlsa-da... — Sen shunday oʻylayapsanmi? — dedilar. Ovozleri boshqacha jaranglab, koʻzlari boshqacha chaqnadi. — Albatta! Siz aytib turing, men kirilchada yozaman, — dedim. Ustoz divanga bemalol oʻtirib olib qoralamalarini oʻqiy boshladilar. Koʻchirib boʻlgach, men baland ovozda hayajon bilan oʻqib berdim. Opa: — Eshitganda aniq bilinar zkan, mana bu bandni oldinga olish kerak, bunisini orqaga, — deya baʼzi bandlarning oʻrnini almashtirdilar. — Men ertaga sahar turib yana bir qarab chiqaman, keyin yana bir oʻqiymiz, — dedilar... Ertalab ishga ketayotib, Chimkent koʻchasidagi uylariga kirdim. Ustoz horgʻin, lekin juda baxtiyor edilar. Kecha oʻqigan dostoniga bir necha bandpar qoʻshilgan edi. Jumladan, birinchi oʻqiganimizda mana bu bandlar yoʻq edi. Bu betakror satrlar bugungi saharining — istiqlol saharining bergan imkoni tufayli dunyoga kelgan edi.

Hurriyat, keldingmi — nahotki kelding,

Pinhona sogʻindim, pinhona kuydim.

Yomgʻirga bagʻrini tutgan sahrodek

— Sening nasimingga qalbimni tutdim. ...

Yodim siniqlari, qalq, ovoz beray,

Qalqdi, yuragim, chida, ber bardosh,

Qaragin titroqda — hammasi jonli,

Qara, hammasining yuzi qontalash...

Men bor ovozim bilan hayajondan titrab, koʻzimda yosh bilan dostonni oʻqir ekanman, ustozning yillar davomida xotiralariga choʻkib yotgan, zamon toʻlqinlarida qalqib chiqqan armonlarining suvratini koʻrardim.

...Aka, jonim akam — jondoshim akam,

Oltmish yil izimga qaytib, yig'layin.

Bo'g'zimda tosh bo'lgan yo'qlovlarimni

“Oh”larim eritar — aytib yig'layin.

kabi satrlarni takror va takror o'qirdim. Ancha payt doston ta'sirida o'tirdim. —
Bu dostonni nima deb ataymiz endi? — dedilar va o'zlari:

— Xotiram parchalari... — dedilar. Indamay qarab turgandim:

— Yo'q. Xotiram siniqlari... — dedilar... Sarlavhadagi “siniq” so'zida jarohat ham bor, so'z juda joyiga tushgan edi. “Xotiram siniqlari” ko'p o'tmay matbuotda chop etildi. Doston samimiyati, insoniy dardning chin in'ikosi sifatida adabiy jamoatchilik, she'riyat muxlislari tomonidan juda iliq qarshi olindi. Va bu asar istiqlool tufayli hayrati, jasorati yana bir bosh balandlagan Zulfiyaxonimning go'zal imkoniyatlarini namoyon etdi. Ustozning tavallud kunlari poytaxtimizning “Turkiston” saroyida nishonlandi. Opa tantana yakunida minnatdorchilik so'zlarini she'rga uladilar. She'rdagi:

Sakson yil lovullab so'nmagan o'tman...

...Baxtim shul, o'zbekning Zulfiyasiman... satrlari u kishi hayotligida ham, keyin ham qancha chiroyli davralarga bosh so'z bo'ldi. Dunyoda hech narsa mangu emas. Davrlar o'tadi, ko'p narsa unutiladi, hatto, o'z davrida yaxshigina vazifa bajargan asarlar ham qachondir ohorini yo'qotishi mumkin. Lekin xalq, millat og'rig'iga, quvonchiga daxldor asarlar xalq va millat bilan birga yashab qoladi. Ustoz Zulfiyaxonimning “Xotiram siniqlari” dostoni ana shunday o'lmas asarlardan biri sifatida xalqimiz, kelajak avlodlar uchun ham qadrlidir.

Qutlibeka Rahimboyeva

Zulfiya she'rlari haqida

Zulfiya o'zining she'rlari orqali o'zbek adabiyotiga katta hissa qo'shgan. Uning she'rlari ko'pincha insoniy his-tuyg'ular, sevgi, hayotning go'zalligi va ma'naviyat kabi mavzularni yoritadi. Zulfiya she'rlari nazmning o'ziga xos yo'nalishlarini ifodalaydi va uning asarlari o'zining soddaligi va samimiyligi bilan ajralib turadi.

Men o'tgan umrimga achinmay qo'ydim...

Hayot kitobimni bexos varaqlab,

Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim.

Tabassum o'rnida kuldim charaqlab,

Suyish kerak bo'lsa — telbacha suydim.

Kiyganim ipakmi, chitmi yo kimxob,

Yurak boyligidan qilmabman parvo.

Meni og'ushlagan hayot naq oftob,

Yangi qo'shiq talab unda har saboh.

Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim,
Hech kimda ko'rmayin umrimga o'xshash:
Suydim,
Erkalandim,
Ayrildim,
Kuydim,
Izzat nima — bildim.
Shu-da bir yashash!..

Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh

Sog'inganda izlab bir nishon,
Qabring tomon olar edim yo'l.
Keltirarding menga bir zamon,
Endi har chog' men eltaman gul.

Keldim. Uzoq qoldim men sokin,
Sening aziz boshingda yolg'iz,
Osmon tiniq edi va lokin,
Parcha bulut yetib keldi tez.

Ko'kda mening boshimda turib,
Go'yo yuragimda qalqdi u.
Ko'zimdagi yoshimni ko'rib
U ham to'kdi yoshini duv-duv.

Biz yig'ladik tepangda shu kun,
Keldingmi deb ko'tarmading bosh.
Ayt-chi, senla baxtiyor onlar
Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh?

Bog'lar qiyg'os gulda

Bog'lar qiyg'os gulda — yaxlit bir chaman,
Har daraxt anvoyi bir tarovatda.
Bir kaft bog' mehnat-u hosilga vatan,
O'zga ko'rk, o'zga rang har bir daraxtda.

Har navda bir gulda, har gulda bir ro'y,
Har daraxt bargi bir dunyo hikoya.
Har birin hosili o'zgasiga ko'rk,
Biri biri uchun qudrat, himoya.

Vatanim ko‘zimda: qay burchi aziz,
Bilmam, qayda tole’ serzavq, serjilo?
Yalpi to‘lishadi bedaxl yurtimiz,
Naq har qarichi dil, jon tomir go‘yo.

Bir qardosh tinchisiz — o‘zga beorom,
Birining nonisiz — o‘zga emas to‘q...
Bu — qadim dunyoda yangi bir olam,
Bunda orqa tog‘siz bir tirik jon yo‘q.

Tayanch bo‘lmasaydi odamzot albat,
O‘zi kashf etardi, kashf etganday baxt

Zulfiya hayoti va ijodi bo‘yicha savol-javoblar

1. Zulfiya turmush o‘rtog‘i Hamid Olimjonning qaysi dostonlari asosida pyesa va librettolarini yaratdi?
J: “Zaynab va Omon”, “Semurg” dostonlari asosida
2. “Nevara” she‘rida shoira nevarasining qaysi qilg‘idan zavqlanadi?
J: Varrak uchirishidan
3. Shoiraning dastlabki she‘rlari qanday nom bilan qachon bosilib chiqqan?
J: “Hayot varaqlari” nomi bilan 1932-yil
4. Zulfiya farzandlarining ismi...
J: Hulkar va Omon
5. Zulfiya qancha vaqt “Saodat” nomli xotin-qizlar jurnalida bosh moharrir bo‘lgan?
J: 1953-yildan 1980-yilgacha, qariyb 30 yilga yaqin
6. Zulfiya qaysi xalq shoirlarining she‘rlarini o‘zbek tiliga tarjima qildi?
J: Rus, ukrain, ozarbayjon, hind shoirlarining
7. “Aziz tuyg‘ular” she‘riy turkumi nechta she‘rni birlashtiradi?
J: 7 ta
8. “Mushoira” she‘rida Zulfiya qaysi yurt tuprog‘ida bo‘lib o‘tgan mushoirani qalamga olgan?
J: Hindistonda
9. Hindlar udumini shoira qanday tasvirlaydi?
J: Oyoq kiyimlarini yechib, gilamda chordana qurib o‘tirib she‘r o‘qish

10.”Vaqt yetsa shu xalqda qolar daftarim, Vaqt yetsa, bu yoqda qolar dardlarim... Ruhim u yoqlarga qush bo‘lib uchar...” Bu misralar bilan Zulfiyaning qaysi she‘ri yakunlanadi?

J: Xotiram siniqlari

Zulfiya tavalludining 110 yilligiga atab o‘tkazilgan davra suhbat

Xalqimizning suyukli shoirasi Zulfiya ijodi, ibratli fazilatlari, hayotiy qarashlari bilan hali-hamon ko‘pchilik qizlar uchun namuna olishga arziqli ijodkor sifatida yodga olinadi. Har yili mamlakatimizda O‘zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaxonim tavalludi bahoriy kayfiyat bilan hamohang tarzda nishonlanadi.

Buxoro viloyat Bolalar kutubxonasida ham betakror shoira tavallud ayyomi munosabati bilan **“She‘riyat tongining yulduzi”** mavzusida 14- maktabning 10-sinf o‘quvchilari bilan davra suhbat o‘tkazildi.

Uchrashuvda “Zulfiyaxonim adabiy merosining o‘zbek qizlari ijodidagi ahamiyati” mavzusida ma‘ruza qilindi. So‘zga chiqqanlar tomonidan o‘quvchilarga Zulfiyaxonim hayoti va ijodi, ibratli voqealar to‘g‘risida gapirib berildi. O‘quvchilar o‘zlarini qiziqtirgan savollariga javob olishdi. Zulfiyaxonimning adabiyotimizga qo‘shgan hissasi, boshqalarga o‘rnak bo‘ladigan ibratli umri haqida hikoya qilindi.

Bahorning ilk nafasi ardoqli shoiramizdan boshlanishi, shoira mehr-sadoqat timsoli ekanini ta’kidlashdi. O‘tgan asrning 30 yillarida o‘zbek adabiyotiga kirib kelgan shoira otashin she‘rlari bilan millionlab adabiyot ixlosmandlarining yuragidan joy olgani, Nodirabegim, Uvaysiy kabi mumtoz shoirlarimizning munosib davomchisi deya e’tirof etilishini qayd etishdi.

Shu o‘rinda davlatimiz rahbari tomonidan **“Bugun Zulfiyaxonimga munosib izdosh sifatida e’tirof etilib, sovrindorlar safida turgan zukko farzandlarimni ko‘rib, qalbim cheksiz faxr va quvonchga to‘lmoqda”**, degan so‘zlarini yodga olsak arziydi. Zulfiyaxonim nafaqat hassos shoira, balki chinakam o‘zbek ayoli timsoli, buyuk qalb egasi edi.

Darhaqiqat, shoiraning “Dalada bir kun”, “Tong qo‘shig‘i” nomli she‘rlar turkumi, “Men tongni kuylayman”, “Yuragimga yaqin kishilar”, “Kuylarim sizga” to‘plamlarida Vatan madhi, mehnat jarayonida fidokorlik ko‘rsatayotgan kishilar hayoti jo‘shib kuylanadi. Shoira “So‘roqlaydi shoirni she‘rim”, “Oydin” , “Quyoshli qalam” kabi ocherk va dostonlari, “Semurg”, “Zaynab va Omon” dostonlari asosida pyesa va opera librettosini ham yaratgan. Uning she‘rlari rus, ingliz, nemis, hind, bolgar, xitoy, arab, fors va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Ko‘tarinki kayfiyatda o‘tgan davra suhbat yig‘ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.G.Asqarova

Baxtim shul – o'zbekning Zulfiyasiman.- Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.- 105 bet

2.Zulfiya

O'g'irlamang qalamim bir kun: she'riy to'plam/Zulfiya.-Toshkent:"Kamalak" nashriyoti,2019.160 bet.

3.Zulfiya

Bahor keldi seni so'roqlab:she'rlar/Zulfiya Isroilova.-Toshkent:Yangi asr avlodi,2016.-192 bet.

4.Эхтиром:(Тўплам) (Нашрга тайёрловчилар Р.Шомансур,Р.Рахмон).-

Т.:Ўзбекистон,1995.-117 бет

5.Zulfiya Isroilova

O'g'lim, sira bo'lmaydi urush: she'rlar/ Z.Isroilova.-Toshkent:Yangi asr avlodi,2019.- 80 bet

